



SUG'ORISH TARTIBLARINING MAKKAJO'XORI NAVLARI O'SISHI- RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

A.Shamsiyev

Qishloq xo'jaligi vazirligi q.x.f.d, professor

J.Eshonqulov

Toshkent davlat agrar universiteti q.x.f.d, professor

M.Anarbayev

Toshkent davlat agrar universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

Sh.Botirov

Qishloq xo'jaligi vazirligi, vazir kotibiyati yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tipik bo'z tuproqlar sharoitida makkajo'xori navlarining turli sug'orish tartiblari bo'yicha o'simlikning o'sishi-rivojlanishiga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar taxlillari keltirilgan.

Kalit so'zlar: makkajo'xori, navlar sug'orish, tartibi, o'sish-rivojlanish ko'rsatkichlari.

Annotation. This article lists data taxa on the effect of maize varieties on plant growth-development under different irrigation arrangements in the context of typical peat soils.

Keywords: corn, watering, order, growth-development indicators.



Kirish. Jaxonda o'sib borayotgan aholini oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatni ham-ashyoga, chorvachilikni to'yimli yem-xashakga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashda makkajo'xori o'simligining o'rni yuqori hisoblanadi. Turli tuproq iqlim-sharoitlarini hisobga olgan holda o'simlikni yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Makkajo'xori o'simligi maydoni bo'yicha dunyoda bug'doy va sholidan keyingi uchinchi o'rinni, yem-xashak ekinlar guruhida yetaki o'rinni egallaydi. Hozirgi paytda makkajo'xori o'simligi ekilgan maydon AQShda 22,5 mln., Xitoyda 20,6 mln., Braziliyada 11,8 mln. gektarni tashkil etadi va FAO ma'lumotlariga ko'ra, ekinlar strukturasida makkajo'xori maydoni bug'doyga nisbatan AQShda 23 %, Avstraliyada 63 %, Germaniyada 70 %, Fransiyada 43 %, Rossiyada 3,5 % ko'p miqdorda joylashtirilgan bo'lib, hosildorligi o'rtacha gektariga 7-10 tonnani tashkil etadi.[1, 2]. Makkajo'xori o'simligi so'talari tarkibida qimmatli mikroelementlar miqdori 20 dan ko'p hisoblanadi. Makkajo'xori doni tarkibida foliy kislotasi va magniyga boy, muntazam iste'mol qilish inson tanasini kerakli miqdor bilan ta'minlashi aniqlangan. [3]. Butun dunyoda donli ekinlar orasida makkajo'xori o'simligi ko'p yetishtiriladi, umumiy maydoni 162 million gektar, 850 million tonnaga yaqin hosil, o'rtacha hosildorligi 5,2 tonna/ga, eng ko'p yetishtiradigan davlatlar Amerika, Xitoy hisoblanadi. [4].

Tadqiqot natijalari. So'nggi yillarda suv taqchilligi tobora oshib borayotgan davrda yer va suv resurslaridan to'laqonli foydalanish, har gektar sug'oriladigan maydondan yuqori hosil olish, jumladan chorvachilini yem-xashak bilan ta'minlash va makkajo'xori navlarini



yetishtirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Makkajo'xori navlarini parvarishlashda mavjud suv resurslarining chegaralanganligi asosiy muammolardan biri sanaladi. Shu sababli ekinlarni sug'orishda mavjud suv resurslaridan yanada samaraliroq foydalanish yo'llarini izlab topish hamda ilmiy asoslangan suv tejamkor agrotexnologiyalarni yaratish, mavjudlarni takomillashtirish masalalari ustida izlanishlar olib borishni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Tipik bo'z tuproqlar o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra turli sug'orishlar bo'yicha olib borilgan makkajo'xori navlarining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi bo'yicha hamda yetishtirilgan donining sifat ko'rsakchilari bo'yicha olingan ma'lumotlar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Sug'orishlar ishlab chiqarish sharoiti bo'yicha amalga oshirilganda tajriba variantlariga nisbatan bo'y baladligi 2-3 sm past bo'lganligi aniqlandi. Tuproqning sug'orish oldi tuproq namligi cheklangan dala nam sig'imiga nisbatan namligi 65-75-65 % sug'orish tartiblarida o'simlikning bo'y balandligi dastlabki birinchi oyda 45 sm ga teng bo'ldi, har oyning 1-sanasida fenologik va biometrik kuzatuvlar o'tkazilgan bo'lib nav bo'yicha 1-iyun sanasida 124 sm ga, 1-iyul sanasida 193 sm, 1-avgust sanasidagi kuzatuvlarda esa 227 sm hamda sentabr oyining 1-sanasida 242 sm ga teng bo'lganligi kuzatildi. Sug'orishlar oddiy egatlab qo'llanilgan sug'orish oldi tuproq namligi 70-75-70% tartib bo'yicha sug'orishda tajribaning variantida yuqorida keltirilgan sanalarga mos holda dala sharoitidagi hisob-kitob ishlari 44, 123, 199, 229 va 1-sentabr oyi bo'yicha esa 254 sm bo'lganligi kuzatilgan. Sug'orish oldi tuproq namligi 70-80-75% tartiblarda makkajo'xori o'simligining bunda olib borilgan tadqiqotlar o'simlikning bo'y balandlik ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lganligi aniqlandi. Bunda Makkajo'xori ekilgan Esdalik-80 navining sug'orishda tuproqning hisobiy qatlamlari bo'yicha olib borilgan fenologik, biometrik kuzatuvlar bo'yicha may oyining 1-sanasidan, 1-sentabrgacha bo'lgan oylar kesimida 76, 132, 201, 242 va 256 sm bo'lganligi tajriba natijalarida qayd etilgan. Kelajak-100 navi ekilgan tajribaning nazorat variantida kuzatuvlar natijasi quyidagicha bo'lib, bunda 39, 128, 193, 224 va 260 sm bo'y balandliklari qayd etilgan. Olib borilgan ilmiy izlanishlarining tajriba variantlarida makkajo'xori Kelajak-100 navining o'sishi va rivojlanish dinamikasi ko'rsatkichlariga ta'siri quyidagicha tahlillarda sug'orish oldi tuproq namligi 65-75-65% sug'orish ishlari amalga oshirildi. Tajriba olib borilgan sug'orish oldi tuproq namligi 70-75-70 % tartib bo'yicha sug'orish agrotadbiri amalga oshirilishi natijasida o'simlikning bo'y balandligi 1-may oyi bo'yicha 49 sm keyingi oylarda 140, 200, 231 va 257 sm bo'lganligi aniqlandi, sug'orish oldi tuproq namligi cheklangan dala nam sig'imiga nisbatan 70-80-75 % sug'orish tartibi bo'yicha o'tkazilgan tajribalarda oylar bo'yicha o'simlikning bo'y balandligi 47, 135, 137, 246 va sentabr oyida 262 sm bo'lganligi kuzatilgan.

Xulosa. Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida makkajo'xori navlarining turli sug'orish tartiblarida sug'orishlar bo'yicha tajribalar o'tkazilgan bo'lib, sug'orish oldi tuproq namligi 70-80-75% bo'yicha sug'orishlar amalga oshirilgan variantda bo'y balandligi yuqori bo'lganligi tajribalarda kuzatilgan.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atabayeva X.N., Xudoyqulov J.B. – O‘simlikshunoslik - T., 2018, B.255-256.
2. Xudoyqulov J.B, Azizov Q.K va boshqalar// Makkajo‘xori yetishtirish// Agrobank 100 ta kitob to‘plami 24-kitob–Toshkent-2021 Tasvir nashriyoti-Colorpack MChJ- B. 40.
3. Azizov K.K., Japparov A.A., Axmedov A.J //Aholi xonadonlarida qo‘shekin sifatida shirin makkajo‘xori va loviya yetishtirish bo‘yicha tavsiya- Agro kimyo himoya va o‘simliklar karantini-Ilmiy-amaliy jurnal–2024-yil, №2. B.146-147.
4. Mashrabov M.I., Qozoqboyev S.S //Tipik bo‘z tuproqlar sharoitida makkajo‘xoridan yuqori hosil olish imkoniyati –Agro kimyo himoya va o‘simliklar karantini-Ilmiy-amaliy jurnal–2024-yil, №2. B.147-149.